

GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH, NAZARIY ASOSLAR VA TIZIMLI YONDASHUV

Jo'rayeva Zebo Xolmirza qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15730626>

Annotatsiya. Maqolada geografik rayon, rayonlashtirish tushunchalari, rayonlashtirishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, mohiyati, tarixi, metodlari, muammolari, taksonomik qiymati, geografik birliklari O'rta Osiyo, O'zbekiston hududi misolida tizimli tahlil yondoshuvi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: rayonlashtirish, rayon, o'lka, provinsiya, kichik provinsiya, okrug, landshaft, taksonomik birliklar, zonallik, azonallik, tizim, struktura, kompleks.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАЙОНИРОВАНИЕ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД

Аннотация. В статье проанализированы понятия географического района, районирования, цель, задачи, содержание, сущность, история, методы, проблемы районирования, таксономическое значение, географические единицы на основе системного подхода на примере территории Средней Азии, Узбекистана.

Ключевые слова: районирование, район, край, провинция, малая провинция, округ, ландшафт, таксономические единицы, зональность, azonальность, система, структура, комплекс.

GEOGRAPHICAL ZONING, THEORETICAL FOUNDATIONS AND A SYSTEMATIC APPROACH

Annotation. The article analyzes the concepts of geographical area, zoning, purpose, objectives, content, essence, history, methods, problems of zoning, taxonomic significance, geographical units based on a systematic approach on the example of the territory of Central Asia, Uzbekistan.

Keywords: zoning, district, region, province, small province, district, landscape, taxonomic units, zonality, azonality, system, structure, complex.

Hududiy rivojlanishning ilmiy asoslarini belgilashda geografik rayonlashtirish muhim metodik vosita hisoblanadi. Har qanday hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini o'zaro bog'liq holda baholash, resurslar va potensialdan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashda rayonlashtirish printsiplarining ahamiyati beqiyosdir. Geografik rayonlashtirish – bu hududlarni ularning umumiylik va farqlilik jihatlariga ko'ra ilmiy mezonlar asosida tahlil qilish va tizimlashtirish jarayonidir.

Har qanday hududni o'rganish muqarrar ravishda "joydan joyga" hududiy farqlarni ajratishga olib keladi. Bundan tashqari, har bir geografik voqea va hodisalar butun geografik qobiq doirasida emas, balki uning bir qismini – kichik hududini hamda hudud ichidagi alohida qismlarini to'liq yoki vaqtinchalik qamrab olishi mumkin. Shu hududni (akvatoriyani) ma'lum bir voqea va hodisalarning asosiy birlamchilik (hukmronlik) darajasiga ko'ra ajratish keng ma'noda rayonlashtirish hisoblanadi.

Rayonlashtirish geografiyaning sintez shakllaridan biridir. Rayonlar birinchi navbatda hududiy tizimlar hisoblanadi, ular obyektiv ravishda mavjud bo'lib, rayonlashtirish jarayonlari natijasida shakllanadi.

Shuning uchun tadqiqotchining vazifasi ularni egallab turgan hududini (akvatoriya) va chegaralarini aniqlash hisoblanadi, bu jarayonda rayonlashtirishning maqsadi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

Ikkinchi holda, rayonlashtirish geografik ma'lumotlarni maxsus geografik yondoshuvlardan foydalangan holda maqsadli tizimlashtirish metodi sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa rayonlarni mintaq, zona, areal va boshqa taksonomik birliklar shaklida ajratishga olib keladi.

Rayonlashtirish - bir-biridan tabiiy, tarixiy, iqtisodiy xususiyatlari, odamlarning yashash sharoitlari bilan farq qiladigan hududlarni qismlarga ajratish hisoblanadi.

Rayonlashtirish - geografik fanlarda keng qo'llaniladigan hududni tizimli tahlil asosida o'rganish metodidir. Rayonlashtirish metod sifatida hududiy boshqaruv va hudud muammolarini hal qilish, optimallashtirish va boshqalar uchun katta ahamiyatga ega. Y.G. Saushkinning fikricha, rayonlarni ajratish va tavsiflash geografiya fanining nazariy salohiyatini va amaliy ahamiyati belgilovchi mezon bo'lib xizmat qilsa, rayonlar haqidagi ta'limot geografiya fanlarining yadrosi ekanligini ta'kidlagan.

Rayonlashtirishning ko'plab metodlari mavjud, ularning asosiylari kartografik, statistik, matematik, kompleks rayonlashtirish va boshqalar. Rayonlashtirish jarayonining mohiyati bu makon va zamondagi o'ziga xos hududiy tuzilmalarni va ularning chegaralarini aniqlashdan iborat. Ma'lumki geografik qobiq bir-butunlikka ega bo'lsada, u mahalliylikka ham ega, ya'ni tabaqalanadi. Rayonlar qamrab olgan hudud masshtabi bo'yicha ham mikro, mezo, makro, ba'zan megarayonlarga ajratiladi. Har bir rayonlashtirish darajasi o'ziga xos rayonlashtirish metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

A.N. Nig'matov (2004) - Umumiy geografik rayonlashtirishning ilmiy asosi, geografik qobiq doirasida, muayyan geografik hududda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat qonuniyatlari va qonunlari namoyon bo'lishini aniqlashdir, - deb ta'kidlaydi.

Tabiiy geografik rayonlashtirish bu geotizimlarni ajratish va umumlashtirishdir, - deb yozgan edi, A.G. Isachenko.

L.S.Berg esa rayonlashtirishga shunday tarif bergan - Tabiiy rayonlarga bo'lmasdan o'rganilgan mamlakatni tabiiy geografiyasi chinakam geografik asar emasdir.

Tabiiy geografik rayonlashtirish iborasi 1897-yilda G.I. Tanfilyev tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan va amalga oshirilgan bo'lsada, bu mavzu hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotgan emas

Geografik rayonlashtirish tarixi, nazariyasi va muammolari bilan turli davrlarda A.A. Grigorev, G.D. Rixter, N.A. Gvozdetkiy, N.I. Mixaylov, D.L. Armand, N.A. Solnsev, V.S. Preobrajenskiy, V.I. Prokayev, F.N. Milkov, S.Ya. Nimmik, M.D. Sharigin, T.M. Kalashnikova, K.I. Ivanovlar O'zbekiston hududini geografik rayonlashtirishda L.S. Berg R.I Abolin, V.N. Chetirkin, L.N Babushkin, N.A. Kogay, M. Qoriyev, Z.A. Akromov, K.N. Berdinsev, N.G. Sopenko, Sh.S. Zokirov, A. Soliyev, P. Musayev, Q. Zokirov, A. Rafiqov va boshqalar shug'ullanishgan. Ko'p olimlar O'rta Osiyoni jumladan, O'zbekistonni regional tamoyiliga asoslanib rayonlashtirganlar.

Geografik rayonlashtirish muammolarini atroflicha o'rganish uchun avvalo rayonlashtirish nima, uning tamoyillari, metodlari, tabiiy komplekslar tasnifi, taksonomik birliklar, geografik rayonlashtirish va kartalashtirish kabi masalalarini chuqurroq bilishni talab qiladi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning mazmuni va mohiyati tabiiy geografik fanlar tizimidan kelib chiqadi. U 2 xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin.

Birinchisi – umumiy tabiiy geografik fanlarga oid rayonlashtirish. Ikkinchisi – xususiy tabiiy geografik fanlarga oid rayonlashtirish.

O'zbekiston hududida ham o'z navbatida xilma-xil tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadigan geotizimlar mavjudki ularning salohiyatidan yanada samarali foydalanish uchun muayyan hududni, turli maqsadlarda, ma'lum bir ko'rsatkichlariga binoan bo'linmalarga ajratish va nomlash qo'llaniladi ya'ni rayonlashtiriladi.

Geografik rayonlashtirishning asosiy vazifasi ma'lum bir hududning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini boshqalardan ajratib ko'rsatishdir. Rayonlashtirishda o'xshash xususiyatlarni (iqlim, o'simlik, relyef, iqtisodiyot tarmoqlarining ixtisoslashuvi) hisobga olgan holda bir xillik tamoyili va har xil o'lchamdagi hududlarni (yirik tumanlar, o'rta darajadagi hududlar, kichik hududlar) ajratishni o'z ichiga olgan ko'p darajali tamoyil qo'llaniladi.

Mamlakatimizda ham geografik tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, rayonlashtirishda har xil kattalikdagi har xil taksonomik qiymatga ega bo'lgan, genetik jihatdan bir butunni tashkil qilgan tabiiy geografik birliklar ajratiladi va ularning tabiiy sharoitidagi farqlar aniqlanadi. Masalan - *tabiiy-geografik (zonal va azonal) rayonlashtirish*. O'zbekistonda hozirgi vaqtda ancha mukammal ishlangan landshaftlar tasnifi asosida regional tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda o'ziga xos kenglik tabiat zonalarining va ularga mos balandlik mintaqalarining borligi respublika hududida 2 ta tekislik va tog' landshaftlari sinfini, 80 ga yaqin landshaft xillarini ajratishga asos bo'lgan.

Taksonomik birliklar sistemasiga asoslanib ish ko'rilganda, albatta, qandaydir bir faktorga asoslanish tabiiydir. Ya'ni bir faktorga asoslanmay turib geotizimlarni ajratish mumkin emas. Tabiiy geografik rayonlashtirishning faktorlari va uslublaridagi yaxlitlik, genetik birlik, komplekslik, nisbiy bir xillik kabi faktorlardan foydalanilsa, uslublardan – tabiiy geografik birliklarni bevosita dalada aniqlash, aerokosmik, yetakchi omil, taqqoslash, laboratoriya, kartografik va boshqa uslublar qo'llaniladi. Zonal va azonal rayonlashtirishda maqola mualliflari tomonidan komplekslik faktori va regional dalada aniqlash uslublaridan foydalanish asosida mamlakatimiz hududida tarkib topgan balandlik mintaqalarini har birini alohida tizim sifatida o'rganish kerakligini, har bir balandlik mintaqasi (cho'l, adir, tog' va yaylov) tizim talablariga mos kelishini, tizim strukturasidagi o'zgarishlarning qonuniy almashinishidagi quyidagi bog'liqliklarni ham hisobga olish kerakligini taklif qilinadi. (1-Jadval)

1-Jadval

O'zbekiston balandlik mintaqalarining tizimli xususiyatlari

Mintaqa		oblast
Mo`tadil		Kontinental shimoliy Turon
		Tog`li Tyan - Shan
Subtropik		Kontinental janubiy Turon
		Tog`li Pomir - Oloy
Cho`l tabiat zonasi		
Tizim xususiyatlarining qonuniy o`zgarishi	Balandlik mintaqalarining nomi va dengiz sathidan balandligi (metrda)	Tizim strukturalaridagi o`zgarishlar
1.Geologik	– Yaylov	- firn chegarasining tarkib topishi

tektonik o'zgarishlar; 2.Hududning submeridional joylashuvidagi o'zgarishlar; 3.Geomorfologik o'zgarishlar; 4.Iqlimiy o'zgarishlar; 5.Gidrologik o'zgarishlar; 6.Tuproq hosil bo'lish jarayonidagi o'zgarishlar; 7.O'simlik va hayvonot dunyosidagi o'zgarishlar; 8.Yonbag'irlar ekspozitsiyasi bilan bog'liq o'zgarishlar; 9.Shamollar yo'nalishiga mosligi va qarama – qarshiligi (baryerligi) bilan bog'liq o'zgarishlar; 10.Okeanlardan uzoqligi bilan bog'liq o'zgarishlar; 11.Ekvatordan uzoqligi bilan bog'liq o'zgarishlar; 12. Antropogen ta'siri va tabiat qonunlari asosida ro'y beradigan o'zgarishlar.	(2700 – 2800 m dan baland)	- antropogen ta'sirning kamayib borishi - landshaftlarda sifat o'zgarishlari - ob-havo elementlarining o'zgarishi - eroziyon jarayonlarning ortishi
	Tog' (1200 – 2700-2800)	- gravitatsiya jarayonlarining ortishi - ultrabinafsha nurlarining ortishi natijasida fotosintez jarayonlarining faollashuvi - havoda bakteriyalarning kamayishi - nishablikning ortib borishi - oqim miqdorining oshishi - antropogen bosim (yuk) ning ortib borishi - tabiiy geografik jarayonlarning kuchayishi (sel, karst, o'pirilma, ko'chki, surilma) - ekspozitsiyalarga bog'liq holda bulutlar harakati, bulutlilik darajasining oshishi, vegetatsiya davrining qisqarib borishi -“markaziy” - gumid tog' landshaftlarining shakllanishi (namlik koeffitsiyenti 1 dan kichik), biota xilma-xilligi - havo zichligining kamayishi - havodagi suv bug'I va changlarning kamayishi - tuproq unumdorligining ortib borishi - qadimiy, endemik turlarning ko'payishi
	Adir (400-1000 1200 - 1600)	- yogin miqdorining ortib borishi - transportirovka jarayonlarining kuchayib borishi - havo massalari xususiyatining o'zgarishi - relyef shakllarining o'zgarishi - landshaft ekologik muammolarning ortishi - geotexnikaviy tizimlar (akval antropogen landshaft) bosimining ortishi - biologik moddalarning almashinuvi - Quyosh radiatsiyasining intensivligining oshib borishi (har 1 km balandlik oshganda 10%) - jarlanish jarayonlarining kuchayishi - kimyoviy elementlar migratsiyasining ortib borishi
	Cho'l (260-280 – 400-500)	- balandlik oshgan sari bosimning kamayib borishi (har 1 km balandlikda 100 mm) - balandlik oshgan sari haroratning kamayib borishi (4 km balndlikkacha har 100 m da 0.5 °C) - vegetatsiya davrining uzoqligi - arid va ekstroarid landshaftlar (namlik koeffitsiyenti 1 dan kichik) - suv, shamol eroziyasining faolligi - eol jarayonlarning kuchayishi - irrigatsiya eroziyasining rivojlanishi - akkumulyatsiya relyef shakllarining hosil bo'lishi - Inson xo'jalik faoliyati ta'sirida yangi landshaft (texnogen) shakllarini vujudga kelishi - Uzoq davr mobaynidagi sug'orish hamda texnika ta'sirida tupoqlarda loyqa va berchlanishning kuchayishi

Jadval adabiyotlar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

- *tabiiy hududiy rayonlashtirish*: Ushbu rayonlashtirishda, mamlakatimiz joylashgan hududning qaysi materik, o'lkasi, kichik o'lkasi, tabiiy geografik rayonlar guruhi va geografik rayonlarga ajratib o'rgatiladi: maktab darsliklarida mamlakatimiz hududi Yevrosiyo materigining O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi, Turon kichik o'lkasi, tog'li va tekislik rayonlar guruhi tarkibidagi 5 ta tekislik tabiiy geografik okrugi 1). Ustyurt, 2). Quyi Amudaryo, 3). Qizilqum, 4) Quyi Amudaryo, 5) Orol, hamda tog'oldi va tog'li qismida 6 ta 1) Qashqadaryo, 2) Surxondaryo, 3) O'rta Zarafshon, 4) Mirzacho'l, 5) Chirchiq-Ohangaron, 6) Farg'ona tabiiy geografik okruglariga ajratiladi [7].

Mamlakatimizning geografiya mutaxassisligi tayyorlanadigan oliy o'quv yurtlarida tabiiy geografik rayonlashtirish mavzulari asosan Dunyoning Tabiiy Geografik Atlasi (FGAM 1964 y), O'zbekiston Milliy Atlasi (2020 y) va boshqa adabiyotlarda () berilgan ma'lumotlar asosida o'rganiladi.

Dunyoning Tabiiy Geografik Atlasi (FGAM 1964 y. 76 bet) da Yevrosiyo materigini 36 ta tabiiy geografik o'lkasi, 106 ta tabiiy geografik rayonga ajratilgan. O'zbekiston joylashgan hudud Yevrosiyo materigining XII. Kaspiy bo'yi Turon hamda XIII. O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi, 27. Turon pasttekisligi, 28. Tyan-Shan, 29. Pomir-Oloy tog'lari tabiiy geografik oblastlari tarkibida o'rganiladi. (2-Jadval)

Yevrosiyo materigining tabiiy geografik rayonlashtirilishida O'zbekiston hududining joylashuvi jadvali (FGAM 1964 y. 76 bet).

2-Jadval

Tabiiy geografik o'lkalari	Oblastlari
XII. Kaspiy bo'yi Turon o'lkasi	26.Kaspiy bo'yi pasttekisligi
	27. Turon pasttekisligi
XIII. O'rta va Markaziy Osiyo	28.Tyanshan tog'lari
	29.Pomir – Oloy
	30.Hindikush

Olimlar tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarida materik doirasida mintaqasi, sektor, zona kabi birliklarni ajratadilar. O'zbekiston hududini tabiiy geografik rayonlashtirishgan O'zbekiston Milliy Atlasi (2020 y.221 bet)da L.N. Babushkin va N.A. Kogay esa materik doirasida to'g'ridan to'g'ri o'lkani ajratishadi va o'lkasi tabiiy geografik rayonlashtirishning yirik birligi bo'lgan O'rta Osiyo o'lkasini o'ziga xos taksonomik birlik talablariga to'liq javob berishini asoslab, o'lkasi doirasida provinsiyasi, kichik provinsiyasi, okrug, tabiiy geografik rayon taksonomik birliklarini komplekslik asosida tavsiflab beradilar.Ular tuzgan taksonomik birliklari bo'yicha mamlakatimiz hududi O'rta Osiyo o'lkasining 2 ta Markaziy Qozog'iston va Turon provinsiyasida, 2 ta tekislik va tog'oldi-tog' kichik provinsiyalarida, 11 ta okrug, 46 ta tabiiy geografik rayonlarga bo'lib o'rganiladi. (3-rasm)

3-rasm

O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasi

(O'zbekiston Milliy Atlasi bo'yicha. 2020 y. 221 bet)

A. Markaziy Qozog'iston provinsiyasi

Tekislik kichik provinsiyasi			Tog‘oldi – tog‘ kichik provinsiyasi		
I.Ustyurt okrugi	Tabiiy geografik rayonlari	1.Shimoliy Ustyurt	-		
		2. Markaziy Ustyurt			
		3. JanubiyUstyurt			
II.Orol okrugi		4. Qizilqumyoni	-		
		5. Sharqiy Orolqum			
		6. Janubiy Amudaryo deltayoni			
		7. Markaziy Orolqum			
		8. G`arbiy Orolqum			
		9. Ustyurtyoni			
B.Turon provinsiyasi					
Tekislik kichik provinsiyasi			Tog‘oldi – tog‘ kichik provinsiyasi		
III.Quyi Amudaryo okrugi	Tabiiy geografik rayonlari	10. Chimboy-Qo‘ng‘irot	VI.	Tabiiy geografik rayonlari	22. Qarshi
		11. Beltog‘	Qashqadaryo okrugi		23.Kitob-Shahrisabz
		12. Xorazm			24. G‘uzor
IV. Qizilqum okrugi		13. Sulton Uvaystog‘	VII.		25.Quyi Surxondaryo
		14. Shimoliy Qizilqum	Surxondaryo okrugi		26.O‘rta Surxondaryo
		15. Bo‘kantov-Yetimtov			27.Yuqori Surxondaryo
		16. Janubiy Qizilqum	VIII. O‘rta		28.Katta-qo‘rg‘on
		17. Tomditov-Quljuqtov	Zarafshon okrugi		29. Samarqand
V. Quyi Zarafshon okrugi		18. Gazli			30. Nurota
		19 Buxoro-Qorako‘l			31. G‘allaorol
		20. Sandiqli			32. Sangzor
		21. Konimex	IX.		33. Forish
		Mirzacho‘l okrugi	34. Zomin		
		X. Chirchiq-Ohangaron okrugi	35. Mirzacho‘l		
			36. Sirdaryo bo‘yi		
			37.tog‘oldi Chirchiq		
			38.Quyi Ohangaron		
			39.Yuqori Ohangaron		
			40.Tog‘li Chirchiq		
			41. G‘arbiy Oloy		
			42. Markaziy tekislik		
			43. G‘ovasoy		
			44.Chotqol		
			45..Farg‘ona		
			46.Sharqiy Oloy		

- *ma'muriy-hududiy rayonlashtirish* – Ushbu rayonlashtirishda mamlakatimiz hududi oltita iqtisodiy rayonlar - Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo, - 14 ta ma'muriy birliklar (*Toshkent shahri bilan*) va 170 ta tumanlarga ajratilgan.

Hozirgi vaqtda geografik rayonlashtirilayotgan hudud ma'muriy chegaraga barcha tadqiqotlarda ham mos tushmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi bu esa tadqiqotchi tomonidan aniqlangan ilmiy masalani ijobiy bartaraf etishda javobgarlikni bo'yniga oladigan “ega” ni topa olmaslikka olib keladi.

Keyingi muammolardan yana biri bu geotizimlarning dinamik harakati (tabiiy, antropogen) bo'lib, bu ham o'z navbatida hudud chegaralarining murakkablashib, takomillashib o'zgarib borishiga olib keladi. Ayniqsa antropogen yukning kun sayin ortib borayotganligi tufayli landshaftlar jadal sur'atda o'zgarib masshtabi kengaymoqda va ularning yangidan yangi turlari paydo bo'lmoqda. Shuning uchun ham ko'pgina taniqli geograf olimlar rayonlashtirishni (A.G. Isachenko, 1965, N.A. Kogay, 1969, F.N. Milkov, 1966) geografiyaning asosiy muammosi deb e'tirof etishadi.

Hozirda mamlakatimizni turli maqsadlarda rayonlashtirish ishlari kichik hududlar miqyosida olib borilmoqda, bu borada mamlakatimiz geograflar oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan talaygina ishlar mavjud: geoekologik, tabiiy resurs, agroekologik, tabiiy-xo'jalik, rekreatsion, antropogen, rekultivatsion, geomorfologik, landshaft-ekologik, iqlimiy, meliorativ, zoogeografik, biogeografik, geotizimli rayonlashtirish va boshqalar.

Xulosa o'rinda shuni qayd qilish joizki, geografik rayonlashtirish borasidagi izlanishlar ham nazariy, ham amaliy ahamiyatiga ega. Unda ko'zda tutilgan bosh maqsad hududlar geografiyasini mukammal o'rganishni asoslarini ishlab chiqishdir. Boshqacha qilib aytganda, "tabiat-aholi-jamiyat" uchrirliqi koevolutsiyasini (uyg'un rivojlanishini) hududlarda oqilona tashkil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S. I., Murtazayev B. C. Ziyorat turizmi va sakral geografiyaning vazifalari //Ўзбекистон География Жамияти X съезди материаллари (Тошкент шаҳри, 2019 йил 6-7 декабрь. 22-24б.
2. Абдуллаев С. И., Муртазаев Б. Ч., Назаров М. Г. The natural potehtial of the landscape //Life Sciences and Agriculture. – 2021. – №. 1. – С. 135-140.
3. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Вопросы географического районирования Средней Азии и Узбекистана. Научные труды ТашГУ, Ташкент, 1964,
4. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси.-Т., Ўқитувчи, 1996
5. Baratov P., M. Mamatqulov., A. Rafiqov. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" Toshkent, O'qituvchi" 2002.
6. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. - Москва, «Высшая школа», 1979, 222 стр
7. География. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf darsligi. "o'qituvchi" Toshkent-2017
8. Жекулин В.С. Введение в географию. Ленинград, Изд. Ленинградского университета, 1989, 272 стр.
9. Зокиров Ш. Кичик худудлар географияси. Тошкент, "Университет", 1999,120-бет.
10. Зокиров Ш.С. Ланшафтшуносликдаги энг кичик бирлик ҳақида. Жанубий Ўзбекистонда география мактабининг шаклланиши ва ривожланиши. Термиз, 2006, 28-29-бетлар.
11. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. Учебник. Москва, «Высшая школа», 1991, 366 стр.
12. Муртазаев Б. Ч. К вопросу изучения физико-географических процессов Юго-Западного Гиссарского хребта на примере Яккабогского лесничества //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-2 (102). – С. 518-529.

13. Nazarov I., Toshev X. Tabiiy geografik rayonlashtirishning metodologik asoslari va amaliyot. Tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlashtirishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2004
14. Назаров М., Муртазаев Б., Якшибоев Б. Антропоген ландшафтларни тадқиқ-этишнинг илмий ва назарий асослари //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 726-731.
15. Прокаев В.И. Физико-географическое районирование. Москва, 1983, 176 стр.
16. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. Toshkent, "Kamalak" nashriyoti 2013y.
17. Танфильев Г.И. «Физико-географические области Европейской России». Труды Вольного экономического общества. 1987, №1 стр. 1-30.
18. Физико-географический атлас мира. Москва 1964.
19. O'zbekiston Milliy Atlasi " I-II- jild.-Toshkent., 2020